

***SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING  
RIVOJLANISHI. ABU NASR FAROBIY ASARLARIDAGI PEDAGOGIK  
FIKRLAR***

***Mingnorov Abduxoliq***

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tarix kafedrasи  
dotsenti*

***Xo'jaqulova Dilnura***

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika va  
psixologiya fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Bu maqolada Uyg'onish davri haqida, Uyg'onish davrining allomalari va ularning pedagogik, tarbiyaviy qarashlari to'grisida, Farobiyning qoldirgan ilmiy me'rosi, pedagog uchun ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi, ta'lim jarayonida tarbiyaning qanday usullaridan foydalanish haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Uyg'onish atamasi, Renessans, Yevropada uyg'onish davri, Markaziy Osiyoda uyg'onish davri madaniyati, ta'lim, tarbiya, Farobiyning qarashlari.

Sharq uyg'onishi, Sharq Renessansi haqida gap ketganda turli soha olimlari-tarixchilar, adabiyotshunoslar, madaniyatshunoslar va san'atshunoslar bu masalaga katta qiziqish bilan qaraydilar. Qarashlar ham asosan ikkiga bo'linadi. Uyg'onish atamasi (italyancha-fransuzcha-Renaissans-Uyg'onish)ni dastavval shu madaniyat sohiblari-italyan gumanistlari ishlatganlar. Italiyalik yozuvchi Jovanni Bakachcho bu atamani Djotto ijodiga qarata, "u antik san'atni uyg'otdi" deb birinchi bor ishlatgan edi.

Butun bir davrni anglatuvchi tushuncha sifatida Renessans san'at tarixchisi Jorjo Vazari(1511-1575 y.) tarafidan uning “Mashxur san'atkorlar hayotidan lavhalar” kitobida (1550) tilga olingan. Bu tushuncha dastlab antik madaniyat an'analarining Italiyada “ming yillik yovvoyilikdan so'ng” tiklanishini anglatib, ilmiy tadqiqotlarda keng ishlatila boshlandi. Ya.Burxart Uyg'onish (Renessans)ni alohida tipdagi madaniyat deb baholadi. Masalaga qiziqish ortib, ilmiy izlanishlar ko'payta borgani sayin Uyg'onish tushunchasi, bu davr madaniyatining xronologik va geografik chegaralari, uni davrlashtirish xususida ziddiyatli, turlicha fikrlar bildirila boshlandi. Y.Xeyzing o'zining “O'rta asrchilikning kuz fasli” asarida Uyg'onish davrini o'rta asr madaniyatining intihosi, deb atadi.Boshqa olimlar esa Uyg'onish davri yangi davr madaniyatining boshlanishi, deb sanadilar. Ko'pchilik olimlar Yevropa Uyg'onish klassik tarsda davrlashtirib u XIV-XVI asrlarga xos , deb bilsalar, boshqalar Uyg'onish madaniyatini bir muncha ilgariroq, XII asr-Karolinglar Renessansidan boshlanib, Ispaniya, Italiya shimolidagi mamlakatlardagi (Shimoliy Uyg'onish) Uyg'onishni XVII asr bilan yakunlaydilar. [1. 256-bet.].

1950-yillarning o'rtalaridan boshlab “Sharq” Uyg'onish davri masalasida jiddiy munozara bahslar boshlanib ketdi. Xitoy madaniyati tarixi tahlilida akademik N. Konrad Uyg'onish davrini qadimgi, o'rta asrlar singari insoniyat sivilizatsiyasining barcha mintaqalariga xos umumbashariy hodisa, deb ataydi. Umumjahoniy jarayon hisoblagan Uyg'onish sharqda (Xitoy) VI-VIII asrlarda boshlanib, G'arb sari siljigan va XIV asrda Yevropa hodisasiga aylangan. Uyg'onishning bunday talqiniga qarshi bu hodisa turli mamlakatlarda mintaqaviy, ayrim ko'rinishlarda amal qilishi mumkin, lekin u umumjahoniy fenomen bo'lishi mumkin emas, deb hisoblovchilar ham bor edi. Uyg'onish davri Xitoyda (Konrad), Kuriyada (Ten), Eron-Tojikistonda (Braginskiy, Nikitin), Hindistonda (Selishev), Turkiyada (Mellov), Armanistonda (Chaloyan), Ozarbayjonda (Gajiyev), Gruziyada (Nusubidze, Natadze) kechganligi haqida ayrim ma'lumotlar keltiriladi. Ayni vaqtda har ikki qarash tarafdarlarini Yevropa

## ***Modern education and development***

---

Uyg'onish davrini mutlaqo betakror hodisa deb qarovchi mualliflar (A.Losef, M.Petrov) jiddiy tanqid qiladilar.

O'zbekistonda Sharq Uyg'onish davri masalasi mahalliy materiallarni umumlashtirgan holda hali yetarli ishlanmagan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi Uyg'onish haqida gap borganda IX-XII asrlar avvalo xorijiy madaniyat va qaror topgan islomiy e'tiqodga nisbatan rivojlangan va boy qadimiy madaniyat negizidagi milliy Uyg'onish deb qaralmog'i lozim. Markaziy Osiyo o'zining uzoq yillik tarixida ko'p bosqin va talonchiliklarni ko'rdi, ularga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun kurash olib bordi. Mustaqillikka intilish g'oyasi va harakati o'zga xalqlar tomonidan yaratilgan madaniyatlarni inkor etmadi. Aksincha, Markaziy Osiyo madaniyatida umuminsoniy ahamiyatga molik jamiki madaniyat yutuqlari ijodiy uyg'unlashganidek, ayni paytda mintaqa madaniyati boshqa xalqlar madaniyatlariga samarali ta'sir ko'rsatdi va ularni boyitdi.[2. 202-bet.].

Mavjud adabiyotlar va fikrlar tahlili asosida Markaziy Osiyodagi xalqlar milliy madaniy Uyg'onishni ikki davrga bo'lish mumkin:

1. IX-XII asrlar- arab bosqinidan keyingi davr.
2. XIV-XV asrlar- mo'g'ul istilosidan keyingi davr. [1. 257-bet.].

Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri madaniyatining belgilari quyidagicha tavsiflanadi:

Dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy bilimlarni jamiyat, insonlar manfaati nuqtai nazaridan talqin etish;

Turli xalqlarning ma'naviy-madaniy merosi hamda o'tmisht madaniy qadriyatlarini ijodiy rivojlantirish;

Tabiatni, mavjud hayotni, mavjudotni o'rghanishga qiziqishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va undan foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarining rivojlanishi;

Bilishda aqlni mezon deb bilish, aqliy bilish, ratsionalistik usul, ilmiylik rolining oshib borishi;

Insonga muhabbat, unga axloqiy, aqliy xislatlarini, qobiliyatlarini o'rganish va fazilatlarini ochib berishga intilish, mantiq ilmiga katta e'tibor berish, komil insonni tarbiyalash, yetuk fozil jamoa haqidagi fikrlarni asoslab berish;

Diniy tasavvur, diniy ta'limotlar rivojida diniy-axloqiy mavzuning ustunligi, inson xulqi, manfaatlarining diniy g'oyalarda yetakchi mavzuga aylanishi, ichki ma'naviy kamolot, Ollohg'a subyektiv ichki mukammallashuv, ma'naviy-ruhiy ko'tarilish, yuksalish yordamida erishuv va uning sifatlariga muyassar bo'lishga qaratilgan faoliyat;

Og'zaki va yozma so'zga katta e'tibor, uning ijtimoiy-axloqiy qudratini kuylash, ta'riflash, she'riyat, filologiya, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, so'z san'ati, ritorika bilan shug'ullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib qolishi. [1. 257-258-bet.].

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida madaniyat yuksalishi parvoz bosqichga chiqqanligi to'g'risida gap borishi bejiz emas, chunki aynan shu hudud jahonni hayratga solgan buyuk mutafakkirlarni yetishtirib berdi. Ushbu zamin ilm-ma'rifat, betakror kashfiyotlar beshigi- tarixda "musulmon madaniyati", "arab madaniyati" deb nomlangan tushunchalar bilan atalsada, sivilizatsiya markazlaridan biriga aylandi.

Arxeologik qazilmalar va qo'lyozma manbalardan ma'lum bo'lishicha o'sha davrda musiqa va musiqashunoslik ham keng rivoj topgan va u matematika ilmining tarkibiy qismi sanalgan. Mazkur davrning buyuk olimi Abu Nasr Farobiy musiqaning nazariy asoslari, kuylar, asboblar, musiqa madaniyatining mezonlari, atamalari tahliliga bag'ishlangan "Katta musiqa" kitobining muallifidir. "Kitob al musiqi al Kibir" o'rta asr musulmon sharqi musiqa nazariyasiga bag'ishlangan kitob bo'lib, 2 qism, 3 kitobdan iborat bo'lган. Farobiy "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida", "Fozil odamlar shahri", "Aql ma'nolari haqida", "Shaharni o'rganish haqida", "Katta musiqa", "Musiqa haqida so'z", "Ritmlar tartibi haqida kitob",

“Ritmga qo’shimcha qilinadigan siljishlar haqida” asarlarining ham muallifidir.[1. 258-bet, 3. 204-bet.].

Mashxur faylasuf va mutafakkir pedagog, qomusiy ilmlar bilimdoni Abu Nasr al-Farobiy(873-930) ustoz-murabbiyga shunday talab qo’yadi: Ustoz o’z shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko’ngilchanlik ham qilmasligi lozim, Chunki, ortiqcha zulm shogirdda ustozga nisbatan nafrat uyg’otadi, bordiyu ustoz juda yumshoq bo’lsa, shogird uni mensimay qo’yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U ustozlarga bolalarning fe’l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida quyidagi “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanishni maslahat beradi:

1. Tarbiyalanuvchilar o’qish-o’rganishga moyil bo’lsa, ta’lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo’llaniladi.
2. Tarbiyalanuvchilar o’zboshimcha, itoatsiz bo’lsa, qattiq usul(majburlov) qo’llaniladi.[1. 263-bet].

U o’qituvchining tarbiya usullarini hukumat(davlat) va shohlarning xalqni tarbiyalash va boshqarishdagi usullariga o’xshatadi, ularni qiyoslaydi. Har ikkalasida ham yumshoqlik va majburlov zarurligini uqtiradi.

Xususan, Abu Nasr al-Farobiyning o’z davri uchun katta xizmatlaridan biri shundaki, u kishilarni ilm-ma’rifatli bo’lishga, halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallahsga chaqiradi. Insonni “ojiz banda”, “hech narsaga qodir bo’lmagan mavjudot” kabi yerga uruvchi diniy aqidalarga zid o’larq, mutafakkir nazarida inson eng oliy kamolot bo’lib, “aql-idrok ziyyosiga ega, o’zi uchun zarur bo’lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir”. [1. 263-bet].

Farobiy inson o’z ijtimoiy vazifasini bajarish uchun, birinchidan, kundalik hayotida atrofdagilar bilan muloqotda bo’lishi zarurligini, ikkinchidan, u mehnat va kasb-hunar ko’nikmalarini, axloqiy fazilatlarni hosil qilishi lozimligini ta’kidlagan. “Agar kasb-hunar fazilati tug’ma bo’lganida edi, -deydi Farobiy,- podshohlar ham o’zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat

tabiiy ravishda muyassar bo’lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo’lib qolar edi. Kasb-hunar fazilati tug’ma bo’lmas ekan, odob-axloq, rasm-rusum, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo’r qudrat talab qilinadi. Bu esa ta’lim va tarbiya yo’li bilan hosil qilinadi. Ta’lim xalqlar va shaxarlar o’rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o’rtasidagi tug’ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so’zdir”. [1. 264-bet.].

“Muallimi soniy” nomi bilan mashxur alloma Abu Nasr Farobiya ta’lim va tarbiya to’g’risidagi fikrlarini shunday bayon qiladi: “...Insonlar turli ilm, hunar faoliyatiga moyilligi va qobiliyatligi bilan tabiatan farq qiladilar. Teng tabiiy xislatlarga ega bo’lgan odamlar esa, o’z tarbiyasi(malakalari) bilan tafovut qiladilar. Tarbiyasi jihatdan teng bo’lganlar esa, bu tarbiya natijalarining turlichaligi bilan bir-biridan farq qiladilar”.

Abu Nasr Farobiyning yana bir qarashlari mavjud. Aytadilarki, “Har bir inson o’z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko’p narsalarga muhtoj bo’ladi, u bir o’zi bunday narsalarni qo’lga krita olmaydi va ularga ega bo’lish uchun shunday insonlar jamoasiga ehtiyoj tug’iladiki, bunday jamoaning har bir a’zosi uning ehtiyoji uchun zarur bo’lgan narsalardan birortasini yetishtirib beradi”.

Farobiya ta’lim-tarbiya berish: amaliy fazilatlar hamda amaliy san’atlar, kasb-hunar va ularni bajarishga odatlantirish yo’lidir va bu odat ikki turli yo’l bilan hosil qilinadi: 1) qanoatbaxsh, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so’zlar(motivatsiya) yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi; 2) odamdagи g’ayrat, kasbga intilish, harakatga aylantiriladi. Chunki maqsad uni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahliga aylantirishdir”, - deb ta’kidlaydi.

Abu Nasr Farobiya ta’lim va tarbiyaga birinchi bo’lib ilmiy ta’rif bergen olimlardan biridir. “Ta’lim so’z va o’rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa, amaliyot, ish tajribasi bilan, ya’ni shu yo’l orqali amalga oshiriladi”, -deydi. Uning fikricha, har bir shaxs munosib odam bo’lishi uchun unga ta’lim va tarbiya

zarur. Inson ta’lim orqali nazariy kamolotga erishadi. Tarbiya orqali esa kishilar bilan muloqotni, axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni o’rganadi. Alloma bolalarning fe’l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanish kerak,- deb hisoblaydi. [1. 264-bet.]

Abu Nasr Farobiyning pedagogik qarashlariga keladigan bo’lsak, ilm-hikmat va tarbiya haqida bir qancha fikrlarni ilgari surganlar:

- Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so’zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo’lsin, xiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo’lsin, diyonatli bo’lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.
- Inson yaxshi tarbiya ko’rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo’lsa, u ko’p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo’rin bo’lib ko’ringan narsalar zaruriy bo’lib chiqadi[3.204-bet.].

Xulosa qilib aytganda, alloma o’z fikrlari orqali ta’lim va tarbiya jarayonini yuksaklikka ko’taradi, ta’lim va tarbiya jarayonlarining o’zaro hamkorligini yoqlaydi. Pedagog shaxsining jamiyatdagi o’rni, uning kamolotga erishuvini ta’minlaydigan usul va vositalarni birma-bir ta’riflab beradi. Inson hayoti davomida ilm-hikmatni egallashga bor kuchi bilan harakat qilishi lozimligini ta’kidlaydi. Farobiy shuningdek, insonga tarbiya bilan birgalikda hayotiy tajriba ham zarurligini aytib o’tadi.

Biz kabi yoshlarning ilm nuridan bahramand bo’lishimizda buyuk allomalarimizning fikrlari va qarashlari, nasihatlari hayotimizda katta ahamiyatga ega. Hozirgi kundagi ta’lim va tarbiya jarayonlarining shakllanishiga ham Uyg’onish davridagi mashxur allomalarimiz asosiy poydevorni yaratib berishgan.

Ularning izidan borib, jamiyatga munosib shaxs bo’lib yetishishimiz o’z qo’limizda! Zero, maqsad sari qo’yilgan kichik qadam ham rivojlanish sari yetaklaydi!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. X.Ibraimov, M.Quronov. Umumiy pedagogika. T.: “Sahhof”, 2023.
2. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova, X.H.Hamzayev, Z.N.Yulchiyeva, A.A.Akromov, M.Gapparova. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T.: “Fan va texnologiya”, 2019.
3. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: “Sano-standart”, 2017.